

Andijon davlat tibbiyot instituti fakultet terapiya kafedrası



Fakultet terapiya kafedra mudiri tibbiyot fanlar do`ktori, professor

**MAMAZOYIR AXMEDOVICH
XO'JAMBERDIEV**

e-mail: agmi_361@mail.ru

FAKULTET TERAPIYA TARIXI VA FAOLIYATI

"Ichki kasalliklar" fani asosiy klinik fan bo'lib, uni bilish nafaqat terapevt balki ixtiyoriy klinik mutaxassislikdagi vrachlar-nevropatolog, dermatolog, xirurg va boshqalar uchun zarurdir.

1960-1961 o'quv yilida ichki kasalliklar kafedrasidan mustaqil fakultet terapiya kafedrası sifatida shakllandi. Kafedra mudiri vazifasida dotsent G.M.Kleyner, kafedra dotsenti bo'lib t.f.n. A.B.Boltaboev, assistent lavozimida katta tajribaga ega bo'lgan O.G.Morozova, S.T.Latipova, F.P.Pulatov, N.A.Abduraxmonova, K.YA.Gurina, M.Karimovalar ishlaganlar. Kafedra bazasi shahar umumlashgan shifoxonasi edi. Assistent S.T.Latipovaning xizmatlari evaziga biokimyo laboratoriyasi ochilib, unda vitamin B 12 miqdorini aniqlash yo'lga qo'yilgan.

Keyinchalik assistent O.G. Morozova, U.A. Askarovlar nomzodlik dissertatsiyasini yoqladilar. 1968 yilda kafedra mudiri etib dotsent O.G. Morozova saylandi. Kafedra tarkibi dotsentlar - M.G. Kleyner, M.M. Omerov, assistentlar - S.A. Latipova, N.A. SHamsieva, F.P.Pulatov, M.G. Murzakaev, D.A. Raxmatullaeva, M.R. Saydullaeva, A.A. Xamidov, B.S. Jabborov, X.D.

Dolimov, E.L.Arutyunova, t.f.n. F.G. Gubaydullina, T.S. Sobirova, J.I. Gershoyg kabi mutaxassislar hisobiga kengaydi.

1996- yilda assistent T.K.Tagaeva Moskvada akademik E.I.CHazov rahbarligida klinik ordinaturani tugatib ishga keldi. Assistentlar Z.K.Raychani, D.A.Sattarova (1971) ishga kelib, 1972-yili Moskvada nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi. 1972 yilda S.Z. Kostko nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi.

1972- yilda kafedra bazasi yana viloyat shifoxonasiga ko'chirildi. Kafedra tarkibi biroz o'zgardi: Kafedra mudiri - dotsent O.G.Morozova, dotsent - M.G.Murzakaev, assistentlar - S.A.Latipova, D.A.Raxmatullaeva, T.K.Tagaeva, E.L.Arutyunova, A.A.Xamidov, B.S.Jabborov, X.D.Daminov, Z.K.Raychani, D.A.Sattarova, T.S.Sobirova, J.I.Gershoyg. YOsh, qobiliyatli mutaxassis M.A.Xo'jamberdiev Moskvada nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi.

1977- da dotsent O.G.Morozovaning nafaqaga chiqishi munosabati bilan kafedrani dotsent M.G.Murzakaev boshqardi. Kafedraning katta va kuchli pedagoglar tarkibi shakllandi: dotsentlar K,D.Jalolov, T.Z.Jumaboev, Z.U.Yuldoshev, assistentlar t.f.n. M.A.Xo'jamberdiev E.L.Arutyunova, S.T.Latipova, Z.K.Raychani, D.A.Sattarova, K.YU.Latipova, T.K.Xolmirzaev, J.I.Gershoyg, S.A.Sinitsina, N.N.Kurzanov.

1981- yilda kafedra assistentlik lavozimiga t.f.n. M.I.Tojiboeva tayinlandi, 1981 yilda esa dotsentlik lavozimiga Z.S. Mamarasulov saylandi.

1984- yilda kafedra mudiri lavozimiga dotsent M.A. Otaxonov tayinlandi. 1985 yilda dotsent M.A.Xo'jamberdiev Moskvada doktorlik dissertatsiyasini yoqladi va shu yili kafedraga mudir etib tayinlandi.

1985- yilda professor M.A.Xo'jamberdiev o'quv ishlari bo'yicha prorektorlik lavozimiga tayinlanishi munosabati bilan dotsent M.K.Karimov kafedra mudiri bo'ldi. 1988- yilda esa 4-kurs davolash fakultetining ichki kasalliklar va davolash jismoniy tarbiya kafedrasini deyildi. Kafedra mudiri lavozimiga yana t.f.d. professor M.A.Xo'jamberdiev tayinlandi. Kafedraning 2-professori lavozimiga A.J.Juraev tayinlandi.

1989-1993 yillari kafedra nomi yana fakultet terapiyasi deb o'zgartirildi. Kafedra mudiri etib professor M.A.Xo'jamberdiev tayinlandi.

1991- yilda N.R.Uzbekova Moskvada nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan, 1992 yildan kafedra assistenti lavozimida ish boshlagan. 1994 yilga kelib kafedra dotsenti lavozimiga saylandi.

Kafedra mudiri t.f.d. prof. M.A.Xo'jamberdiev kasallarni ko'rish paytida

M.A.Xo'jamberdiev rahbarligi ostida 1983- yilda M.Mamadiev, 1993- yilda T. Saydullaevlar, 1994 yilda Q. Amanov nomzodlik dissertatsiyasini yoqladilar, 2002- yilda aspirant N.Z.Isamitdinova va izlanuvchi M.M.Mirsaydullaev, 2004-yili assistent M.I.Boymirzaev, 2005- yili aspirant Z.A.Ergasheva, 2006- yili aspirant G.I.Kodirova, 2008- yili aspirantlar Usmanova D.N. va Vaxabov B.M., 2010- yilda aspirant Tashtemirova I.M., 2011- yilda assistent YUsupova SH.K., 2011- yilda izlanuvchi Jumaboev U.T. va 2012- yilda aspirant Usmanova U.A.lar nomzodlik dissertatsiyasini yoqladilar. Umuman M.A.Xo'jamberdiev rahbarligida 4 ta doktorlik, 14 ta nomzodlik dissertatsiyasi yoqlandi, yana 5 ta doktorlik dissertatsiyasi himoya qilishga tayyorlanmoqda.

M.A.Xujamberdiev rahbarligi ostida 1994- yilda t.f.n. M. Mamadiev, 2007- yili t.f.n. M.M.Mirsaydullaev, 2008- yili esa Tursunov X.X. va 2011- yili Iminova O. doktorlik dissertatsiyasini yoqladilar.

Davolash ishlarida professor M.A.Xo'jamberdiev rahbarligi ostida tashxislashning zamonaviy usullari, kasalliklar tasniflari qo'llanilib, davolash ishlari yuqori saviya ko'tarilgan. Kafedra xodimlari yordamida konsultativ, otaliq xizmati amalga oshirilyapti.

Hozirgi kunda kafedrada 1 tibbiyot fanlari doktori, 8 ta tibbiyot fanlari nomzodi, undan 5 tasi dotsent lavozimida va 4 ta assistent ishlab kelmoqda. Ushbu davr ichida kafedrada "Kardiologiya" mutaxassisligi bo'yicha 41 ta magistr tayyorlandi va ilmiy ishlari himoya qilindi, 30 magistr ta'lim olyapti, 7 magistrlik ilmiy ishlar himoyaga tayyorlanyapti.

Yuqori xizmatlari inobatga olinib kafedra mudiri, t.f.d. prof. M.A. Xo'jamberdiev 2005- yildan 2009-yilgacha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati a'zosi etib saylangan va 2010- yilda qayta senatorlik lavozimiga saylanib 2010-2014 yillari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Fan ta'lim, madaniyat va sport masalalari qumitasi raisi lavozimida ishlagan.

Kafedra xodimlari Respublika, xalqaro simpozium va konferensiyalarda faol ishtirok etmokdalar. Kafedra xodimlari tomonidan 3 ta darslik, 15 ta monografiya, 110 ta uslubiy qo'llanma, 160 ta uslubiy tavsiyanomalar, 690 ta ilmiy maqola, 1500 dan ortiq tezislari chop etildi, 180 ta ratsionalizatorlik taklifi, 78 ta kashfiyot amaliyotga tadbiiq etildi.



Kafedra hodimlari